Kalit so'zlar: Xalqaro moliya institutlari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro valuta jamg'armasi, moliyaviy mahsulotlar, investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, makroiqtisodiy barqarorlik, xalqaro hamkorlik.

Abstract. This article analyzes the role of international financial institutions in the modern global financial system, their main functions, and their importance in the economic development of developing countries. The study examines the activities, financial products, and areas of cooperation with the Republic of Uzbekistan of leading international financial institutions such as the World Bank, the Asian Development Bank, the European Bank for Reconstruction and Development, the Islamic Development Bank, and the International Monetary Fund. In addition, the article highlights the role of financial resources, grants, concessional loans, and technical assistance provided by these institutions in modernizing the national economy, developing infrastructure, improving social sectors, and ensuring macroeconomic stability. The results of the research demonstrate that strengthening cooperation with international financial institutions, improving financial management efficiency, and ensuring sustainable economic growth have significant scientific and practical importance.

Key words: International financial institutions, World Bank, Asian Development Bank, European Bank for Reconstruction and Development, Islamic Development Bank, International Monetary Fund, financial products, investments, economic development, infrastructure, macroeconomic stability, international cooperation.

Аннотация. В данной статье научно анализируется роль международных финансовых институтов в современной глобальной финансовой системе, их основные функции и значение в экономическом развитии развивающихся стран. В ходе исследования были изучены деятельность, финансовые продукты и направления сотрудничества с Республикой Узбекистан таких ведущих международных финансовых институтов, как Всемирный банк, Азиатский банк развития, Европейский банк реконструкции и развития, Исламский банк развития и Международный валютный фонд. Также раскрыта роль финансовых ресурсов, грантов, льготных кредитов и технической помощи, предоставляемых данными институтами, в модернизации экономики страны, развитии инфраструктуры, совершенствовании социальной сферы и обеспечении макроэкономической стабильности. Результаты исследования показывают, что развитие сотрудничества с международными финансовыми институтами, повышение эффективности финансового управления и обеспечение устойчивого экономического роста имеют важное научно-практическое значение.

Ключевые слова: Международные финансовые институты, Всемирный банк, Азиатский банк развития, Европейский банк реконструкции и развития, Исламский банк развития, Международный валютный фонд, финансовые продукты, инвестиции, экономическое развитие, инфраструктура, макроэкономическая стабильность, международное сотрудничество.



KIRISH

So'nggi yillarda xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy mahsulotlar xalqaro moliya tizimida o'zining maqbulligi, barqarorligi hamda uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xalqaro moliya tizimining birlamchi manbalaridan moliyaviy resurslarni jalb etish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda, makroiqtisodiy muvozanatni mustahkamlashda hamda iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy mahsulotlar rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahon xo'jaligining globallashuvi va milliy iqtisodiyotlarning transformatsiyalashuvi sharoitida xalqaro moliya institutlari tomonidan taklif etilayotgan moliyaviy mahsulotlarning iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday mahsulotlardan samarali foydalanish mamlakatlarning investitsion salohiyatini oshirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilishda asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun ularning moliyaviy mexanizmlari va mahsulotlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarur hisoblanadi (The United Nations Conference on Trade and Development. [Elektron resurs]. URL: <https://unctad.org>). Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekistonda olib borilayotgan tarkibiy islohotlar, investitsiya siyosatini liberallashtirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonlarida xalqaro moliya institutlari moliyaviy mahsulotlaridan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy mahsulot tushunchasi xalqaro moliya institutlari tomonidan xalqaro moliya bozorida taklif etiladigan moliyaviy xizmatlar, moliyaviy instrumentlar hamda texnologiyalar majmuasi sifatida talqin qilinadi (Mirkin Y.M., Mirkin V.Y. Anglo-russkiy tolkoviy slovar po finansovim rinkam. – M.: Alpina Biznes Buks, 2008. – 389 b.). Mazkur mahsulotlar kreditlar, grantlar, texnik ko'mak, investitsion moliyalashtirish va kafolat instrumentlari kabi turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Xalqaro moliya institutlari faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar, odatda, aniq maqsadli dasturlar va loyihalar doirasida amalga oshiriladi. Shu jihatdan, xalqaro moliya institutlari - Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki tomonidan taklif etilayotgan moliyaviy mahsulotlarning shakllari, mexanizmlari va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida ularning rolini yanada chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro moliya institutlari faoliyati, ularning moliyaviy mahsulotlari hamda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi roli masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan kreditlar, grantlar, kafolatlar va texnik yordam kabi moliyaviy instrumentlarning iqtisodiy o'sish, investitsiya jarayonlari va institutsional rivojlanishga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Xalqaro moliya institutlari faoliyatining nazariy asoslari va global moliya tizimidagi o'rni masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, J. Stiglitz xalqaro moliya institutlarining rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy siyosatini shakllantirishdagi rolini tahlil qilib, ularning kredit siyosati va iqtisodiy islohotlarga ta'sirini asoslab bergan. Unga ko'ra, xalqaro moliya institutlari nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi muhim institutsional mexanizm ham hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlarining rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga ta'siri bo'yicha J. Sachs va A. Warner tadqiqotlarida xalqaro moliyaviy yordamning iqtisodiy o'sishga ta'siri, kapital oqimlarining samaradorligi hamda moliyaviy integratsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni yoritib berilgan. Ularning fikricha, xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan uzoq muddatli kreditlar va investitsiyalar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro moliya institutlari faoliyati va ularning moliyaviy instrumentlari masalalari Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Jahon banki guruhi (World Bank Group), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) kabi tashkilotlar tomonidan chop etilgan hisobotlarda ham batafsil tahlil qilingan. Ushbu hisobotlarda xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy mahsulotlarning asosiy turlari – imtiyozli kreditlar, grantlar, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, texnik yordam va institutsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng yoritilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida xalqaro moliya institutlarining o'rni masalalari mahalliy olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, Sh. Shodmonov, Q. Xoshimov, B. Yuldashev kabi iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida

xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyatini, investitsiya jarayonlarini faollashtirishdagi rolini hamda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishdagi hissasini tahlil qilganlar.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirdi. Bu jarayonda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot banki tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy mahsulotlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, energetika va transport sohaslarini takomillashtirish hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda xalqaro moliya institutlari moliyaviy mahsulotlarining O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi samaradorligini kompleks baholash, ularning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois ushbu tadqiqotda xalqaro moliya institutlari moliyaviy mahsulotlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda ularning samaradorligini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan kuzatuv, statistik tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro moliya institutlari O'zbekiston Respublikasining uzoq muddatli iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish strategiyasida o'ta muhim, ishonchli va ajralmas hamkor sifatida faoliyat olib bormoqda. Mamlakatimizning global miqyosdagi iqtisodiy integratsiyasi, modernizatsiya jarayonlari, texnologik taraqqiyoti va moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda ushbu institutlarning o'rni tobora kuchayib bormoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda Xalqaro valuta jamg'armasi kabi dunyoning yetakchi va yirik xalqaro moliyaviy institutlari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy rivojlanish dasturlari hamda strategik yo'nalishlar doirasida faol hamkorlik qilib, mamlakatimizga zaruriy moliyaviy mablag'larni taqdim etish, texnik maslahatlar berish va ilg'or tajribalarni joriy qilish orqali taraqqiyot jarayonlarini jadallashtirmoqda. Ularning ko'magi orqali iqtisodiyot tarmoqlarini chuqur isloh qilish, davlat boshqaruvini samarali tashkil etish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va zamonaviy infratuzilma barpo etish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ayniqsa, Jahon bankining O'zbekiston hududidagi faoliyati alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ushbu institut tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar keng qamrovli va ko'p tarmoqli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, ta'lim tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash xizmatlarini isloh qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, zamonaviy transport va kommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish kabi ustuvor sohalar bank tomonidan ajratilayotgan mablag'lar nafaqat moddiy-texnik bazani mustahkamlashga, balki mazkur sohalar orqali butun jamiyatning farovonligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Jahon banki ko'magida olib borilayotgan loyihalar zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish, inson kapitalini har tomonlama rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va yashash sharoitlarini yaxshilashga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Bu kabi keng ko'lamli hamkorlik zamidida O'zbekistonning innovatsion rivojlanish modeliga asoslangan barqaror, inklyuziv va raqobatbardosh iqtisodiy tizimini shakllantirishga qaratilgan strategik maqsadlar mujassam.

Jahon bankining grant va imtiyozli kreditlari davlat budjetiga bosimni sezilarli darajada kamaytirib, mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ushbu institut tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiyotni raqobatbardosh qilishga katta hissa qo'shadi. Jahon bankining uzoq muddatli strategiyasi O'zbekiston uchun iqtisodiy o'sishning barqaror va inklyuziv shaklini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu esa mamlakatni global iqtisodiy maydonda yanada raqobatbardosh qilish imkonini beradi.

Osiyo taraqqiyot banki esa mintaqaviy darajada O'zbekistonning iqtisodiy infratuzilmasini, ayniqsa transport, energetika va ekologiya sohalarini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu bankning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi natijasida mamlakatimizda keng ko'lami transport yo'llari, elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlari va shahar infratuzilmasini takomillashtirish loyihalari muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Loyihalar nafaqat mamlakat ichidagi transport va energiya tizimlarini modernizatsiya q ilish, balki eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiyotning global integratsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Osiyo taraqqiyot bankining yondashuvi ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan bo'lib, u atrof-muhitni asrash, resurslarni samarali boshqarish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishga katta e'tibor beradi. Shu tariqa, bankning ko'maklari mamlakatimizning uzoq muddatli bargaror rivojlanish yo'lida muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O'zbekistondagi faoliyati xususiy sektorni rivojlantirish, bank-moliya tizimini isloh qilish va barqaror energiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan. Bu institut



mamlakatimizda kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda, chunki xususiy sektorning kengayishi iqtisodiy o'sish va bandlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. EBRD orqali moliyalashtirilayotgan loyihalar bank tizimini yanada mustahkamlash, yangi moliyaviy xizmatlarni joriy etish va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro moliyaviy institutlar faoliyat vazifalari va O'zbekiston bilan hamkorligi

№	Institut nomi	Asosiy vazifalari	Faoliyat yo'nalishlari	O'zbekistondagi hamkorlik sohalari
1	Jahon banki (World Bank)	Rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash uchun moliyaviy yordam berish	Infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi	Suv ta'minoti, qishloq xo'jaligi, ta'lim islohotlari
2	Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB)	Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy va texnik yordam ko'rsatish	Transport, energetika, shahar infratuzilmasi, ekologiya	Transport infratuzilmasi, energiya loyihalari, ekologiya
3	Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD)	Rivojlanayotgan va o'rta darajadagi daromadli mamlakatlarga investitsiyalar va maslahat xizmatlari ko'rsatish	Bank-moliya, sanoat, qishloq xo'jaligi, ekologiya	Bank tizimini modernizatsiya qilish, xususiy sektorni rivojlantirish
4	Islom Taraqqiyot Banki (IsDB)	Islom iqtisodiyoti tamoyillariga muvofiq rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berish	Sanoat, infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar, qishloq xo'jaligi	Sog'liqni saqlash, ta'lim, suv va qishloq infratuzilmasi
5	Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF)	Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va moliyaviy yordam ko'rsatish	Makroiqtisodiy maslahatlar, makroiqtisodiy barqarorlik	Makroiqtisodiy siyosat bo'yicha maslahat, valyuta barqarorligi

Manba: xalqaro moliyaviy institutlar faoliyatini keng o'rgangan holda muallif ishlanmasi.

Shu bilan birga, barqaror energiya loyihalariga yo'naltirilgan moliyaviy yordam mamlakatimizning ekologik xavfsizligini ta'minlash va uglerod chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. EBRDning moliyaviy va texnik yordam ko'rsatishi natijasida iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayoni tezlashadi, yangi sanoat tarmoqlari rivojlanadi va O'zbekiston xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi.

Islom taraqqiyot banki esa O'zbekistonda sog'liqni saqlash, ta'lim, sanoat va qishloq xo'jaligi sohasida islom moliyasi tamoyillariga muvofiq loyihalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu institutning moliyaviy yordamidan foydalanish ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, suv ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini takomillashtirishga xizmat qiladi. Islom taraqqiyot bankining faoliyati milliy an'analar va islom iqtisodiy qadriyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy rivojlanish yo'nalishlarini amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa mamlakatimizda ijtimoiy adolat, inklyuziv iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. IsDBning moliyaviy ko'maklari orqali amalga oshirilayotgan loyihalar aholining turmush darajasini oshirishga, ayniqsa qishloq joylarida yashovchi aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro valuta jamg'armasi O'zbekistonning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy siyosatni yaxshilash uchun texnik maslahatlar hamda moliyaviy yordam ko'rsatadi. IMFning maslahatlari va monitoringi mamlakatimizda fiskal, valyuta va monetar siyosatni takomillashtirishga yordam berib, iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu esa uzoq muddatli rivojlanish uchun barqaror va ishonchli asos yaratadi. IMF bilan hamkorlik O'zbekistonning xalqaro moliyaviy bozorlarga chiqishini osonlashtiradi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy tizimni global standartlarga moslashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, Xalqaro valuta jamg'armasi orqali olib borilayotgan islohotlar mamlakatda iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini ta'minlash va iqtisodiy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro moliya institutlari mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohasini rivojlantirishda nafaqat moliyaviy yordam manbai, balki ilg'or boshqaruv tajribasi, texnik maslahatlar va innovatsion yondashuvlarni taqdim etuvchi strategik sherik sifatida o'z o'rnini mustahkamlashmoqda. Ularning moliyaviy ko'magi va ekspertizasi asosida O'zbekistonda infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar, moliya tizimi, ekologiya va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va samarali boshqaruv mexanizmlarini yo'lga qo'yish mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish, innovatsiyalarni joriy qilish va xalq farovonligini yanada yaxshilashda muhim omil



bo'lib qoladi. Shu tariqa, ushbu institutlarning roli O'zbekistonning global iqtisodiyotga integratsiyasi va barqaror rivojlanishining ajralmas qismiga aylanishini ta'minlamoqda.

Xalqaro moliya institutlari bilan ishlash – bu faqatgina moliyaviy resurslarga ega bo'lish emas, balki xalqaro standartlar, ilg'or boshqaruv tajribasi, monitoring va baholash tizimlari, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari, barqaror rivojlanish tamoyillarini milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatidir. Bunday yondashuv mamlakatimizda uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun strategik vosita sifatida qaralmoqda. Shu bois, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning bugungi holati, mavjud muammolar va cheklovlar, loyihalarning monitoringi, moliyaviy boshqaruv tizimi, hisobotlilik va shaffoflik darajasi, risklarni baholash mexanizmlari va eng asosiysi, istiqboldagi imkoniyatlar chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb ilmiy-amaliy masaladir.

Xalqaro moliya institutlarining mohiyati, ularning asosiy funksiyalari, O'zbekiston bilan amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar misolida bu institutlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga ta'siri, moliyaviy boshqaruv mexanizmlari, istiqboldagi hamkorlik yo'nalishlari, sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida xalqaro moliya institutlari bilan ishlashda davlat va nodavlat sektorining o'zaro hamkorlik modellari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, loyihalarning barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilg'or yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shu orqali, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va istiqboldagi samarali hamkorlik yo'nalishlarini aniqlashga erishiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari zamonaviy global moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida strategik hamkor sifatida muhim o'rin egallaydi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda Xalqaro valuta jamg'armasi kabi institutlar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar, grantlar, imtiyozli kreditlar va texnik maslahatlar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, moliya tizimini mustahkamlash hamda ijtimoiy sohalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu institutlar ko'magida transport, energetika, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologiya sohalarida ko'plab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshib, mamlakatning global iqtisodiy integratsiyasi jarayoni yanada jadallashmoqda. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki ilg'or boshqaruv tajribasi, zamonaviy texnologiyalar, shaffoflik va samaradorlikka asoslangan boshqaruv tizimlarini joriy etish imkonini ham yaratadi. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini milliy iqtisodiyotga keng tatbiq etishda muhim omil hisoblanadi.

Kelgusida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish, loyihalarni tanlash va amalga oshirish jarayonida samarali monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish, moliyaviy boshqaruvning shaffofligini ta'minlash hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo'llash muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va milliy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish orqali xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish, ijtimoiy farovonlikni oshirish hamda mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashda muhim strategik omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirkin Y.M., Mirkin V.Y. Anglo-russskiy tolkoviy slovar po finansovim rinkam. – Moskva: Alpina Biznes Buks, Alpina Publisherz, 2008. – 389 b.
2. The United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). UN list of Least Developed Countries. [Elektron resurs]. – URL: <https://unctad.org/e/Pages/ALDC/Least%20Developed%20Countries/UN-list-of-Least-Developed-Countries.aspx>
3. World Bank. World Development Report. – Washington, DC: The World Bank.
4. Asian Development Bank. Annual Report. – Manila: Asian Development Bank.
5. European Bank for Reconstruction and Development. Transition Report. – London: EBRD.
6. Islamic Development Bank. IsDB Annual Report. – Jeddah: Islamic Development Bank Group.
7. International Monetary Fund. World Economic Outlook. – Washington, DC: IMF.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlar. – Toshkent, turli yillar.



9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. – Toshkent.
10. Abdullayev Yo., Xodjayev B. Xalqaro moliya va moliya bozorlari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>